



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ARAB TILINI OTMDA O‘QITISH USULLARI

Gaipova Shahnoza Mahmudovna

Alfraganus universiteti

Sharq filologiyasiv kafedrasini o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada OTM talabalariga arab tilini asosiy hamda qo‘shimcha til sifatida o‘rgatishda qo‘llaniladigan samarali usullar, ularning natijalari va mazkur jarayonda yuz beradigan noqulaylik va muammolar haqida so‘z yuritiladi. Xususan, Alfraganus universitetida arab tilini o‘rgatishda qo‘l keladigan metodlar ham tilga olinadi.*

Tayanch so‘zlar: metod, usul, uslub, publitsistik uslub, zamonaviy texnologiyalar, o‘quv qo‘llanma, darslik, interfaol dasturlar.

Qadim zamonlardan buyon turli xalqlar orasida dunyodagi eng boy tillardan sanalmish arab tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish katta bo‘lgan. Bugungi kunda ham arab tili Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning olti rasmiy tilidan biri hisoblanadi. Arab tilini o‘rganish nafaqat diniy, balki madaniy, iqtisodiy, siyosiy va diplomatik jihatdan ham dunyo miqyosida katta ahamiyat kasb etadi, uning ahamiyati faqatgina muslimon dunyosi va diniy soha bilan cheklanib qolmay, xalqaro aloqalar, iqtisodiyot, siyosat va madaniyat jabhalarida ham tobora ortib bormoqda. Jumladan, O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosi hamda xalqaro munosabatlarida arab tili muhim o‘rin tutadi. Shu bois ham oliv ta’lim muassasalarida arab tili ta’limiga alohida e’tibor qaratilib, muhim vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekistonning arab olami bilan uzviy hamkorlik aloqalari va do‘stona munosabatlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu mustahkam rishtalar boy tarixiy, madaniy va diniy merosga ega. Mavarounnahr zaminida yetishib chiqqan mashhur olimu fuzalolar, donishmandu mutafakkirlarning asarları arab tilida yozilgan bo‘lib, ko‘plab nodir asarlar mamlakatimiz qo‘lyozma fondlarida saqlanib kelinmoqda. Albatta, bularning barchasi yurtimizda arab tili azal-azaldan o‘rganilib, unga bo‘lgan qiziqishning kundan-kunga ortib borayotganligini ko‘rsatadi. Arab tilini o‘rganish O‘zbekiston va boshqa muslimon mamlakatlari o‘rtasidagi madaniy va ilmiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston arab davlatlari bilan iqtisodiy va siyosiy hamkorlikni rivojlantirayotgan bir pallada arab tilini bilish uni o‘rganayotgan talaba-yoshlari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Ayni damda, ko‘plab arab mamlakatlari bilan iqtisodiy va savdo aloqalari keng yo‘lga qo‘ylganligini inobatga olsak, arab tilini biluvchi, u tilda gapira oladigan, tarjima qiladigan mutaxassislarning o‘rni ortmoqda, chunki o‘zaro ishbilarmonlik va biznes munosabatlarida til bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, aynan arab tilini o‘rganish orqali tarixiy, falsafiy, ilmiy va boshqa juda ko‘p sohalarga tegishli asarlar hamda manbalarni o‘qib-o‘rganish, tarjima qilish fursati paydo bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borish imkonini berib, ilmiy soha rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Islomiy ta’limotning asl manbalari, xususan, Qur’on va hadislar to‘plamlari arab tilida yozilgan bo‘lib, shu sababli muslimmon dunyosida diniy bilimlar bilan shug‘ullanuvchilar uchun arab tilini bilish ehtiyoji katta va bu til diniy matnlarni to‘g‘ri o‘qish, tushunish va sharhlash imkonini beradi. Islom dinining asosiy tili bo‘lganligi sababli yurtimizda diniy ta’lim oluvchi talaba-yoshlarimiz uchun uni o‘rganish juda muhim va dolzarbdir. Ko‘plab talablarga binoan, davlatimizda faoliyat yuritayotgan ko‘pgina oliy ta’lim muassasalari (OTM)da arab tili asosiy va qo‘srimcha til sifatida o‘qitiladi, arab tili darslari zamonaviy metodlar va asl arabiyan manbalardan foydalangan holda o‘tiladi. Talabalarning tilni yaxshiroq o‘zlashtirishi uchun amaliy mashg‘ulotlar va arabcha muomala muhiti yaratish zarurdir. Bunda audio va video materiallardan unumli foydalaniladi. Bilamizki, har qanday tilni o‘rgatishda onlayn resurslar va texnologiyalarining o‘rni ortib borayotgan zamonaviy davrda onlayn platformalar talabalarga tilni tezroq va samarali o‘rganishga ko‘maklashadi.

Shu bilan birga, arab tili uchun zamonaviy va boy metodik resurslar kamligi ta’lim jarayonidagi muammolardan biridir. Arab tili murakkab grammatik tuzilishga ega bo‘lib, uni o‘qitishda malakali pedagoglar talab qilinadi. Ushbu masalalarni hal qilish uchun yangi o‘quv qo‘llanmalarni yaratish va arab tili o‘qituvchilarining malakasini oshirish, ularni xalqaro standartlar asosida tayyorlash zarur. Zamonaviy talablarga mos o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ularni talabalarning asosiy mutaxassisligi va yo‘nalishiga mos ravishda tuzish va amalda keng joriy qilish darkor. O‘qituvchilar uchun esa maxsus kurs, seminar va treninglar, shuningdek, xorijiy tajriba almashinuv dasturlarini tashkil etish samarali natija berishi aniq. Zero, ixtisoslik fanlarining nazariy asoslarini chuqur o‘zlashtirgan, yuqori darajadagi kasbiy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lgan, yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zida mujassam etgan, yangilangan davlat ta’lim standartlari modernizatsiya qilingan, optimallashtirilgan, uzviylashtirilgan o‘quv dasturlari va darsliklar bilan tanishib, ularni ta’lim jarayoniga o‘z vaqtida tatbiq etadigan o‘qituvchilar milliy ta’lim tizimimiz rivojlanishining asoschilari hisoblanadi [3;21].

Arab tilida erkin gapirish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun talabalarga ko‘proq arabiyan muhitda bo‘lish imkonini berish, zamonaviy metodika va amaliyotga asoslangan yondashuvlar joriy etilishi lozim. Bunday qulay va qiziqarli muhit interfaol dars o‘tish usullari, jumladan, immersiya texnikalari, keys usuli, turli o‘yin texnologiyalari, multimedia resurslari, audio-vizual materiallardan foydalangan holda talabalar diqqat-e’tiborini jalg qilib, darsga qiziqishlarini oshirish bilan yaratiladi. Arab tili asosiy til va qo‘srimcha xorijiy til sifatida o‘rgatilganda barcha talabalar tomonidan ijobiy qabul qilinadigan o‘yin texnologiyalari usuli o‘rganuvchilarda intiluvchanlik hissini uyg‘otib, raqobatbardoshlik ruhini rivojlantiradi va so‘z boyligini oshiradi [5;3]. Xususan, Alfraganus universiteti talabalariga arab tilini asosiy til sifatida o‘qitishda ular bilan filologiya yo‘nalishiga mos ravishda ixtisoslikka doir nazariy bilimlar bilan bir qatorda til o‘rganishning 4 ta ko‘nikmasini qamrab oladigan amaliy mashg‘ulot va mashqlar ishlatish,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



turli mavzulardagi amaliy matnlar o‘qish, arab gazeta va jurnallari bilan talabalarni tanishtirish, tarjima qildirish, yodlattirish va qayta gapirib berishga undash usullarini qo‘llash, dolzarb mavzularda turli tele va radioko‘rsatuvlarni namoyish ettirib, dialog va suhbatlarga jalb qilish, kundalik xabar va yangiliklarni o‘z ichiga olgan jumlalar tuzish, yanada kengaytirib insho yozish kabi vazifalar berish yaxshi samara beradi. Arab tilini talabalarga o‘qitishning asosiy turi amaliy mashg‘ulotlar bo‘lib, ular talabalarining umumiyligi, kommunikativ va kasbiy kompetensiysi rivojlanishini ta’minlaydi. Talaba to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini egallashi, arab tilining grammatik tuzilmalaridan erkin va to‘g‘ri foydalana olishi, nutqiy harakatlar, umuminsoniy tushunchalar, mavzular va vaziyatlarga mos ravishda tanlab olingan kommunikativ faoliyatning barcha foydalanish uchun leksik materialni o‘zlashtirishi kerak [2;156].

Umuman olganda, arab tilini o‘qitish nafaqat til o‘rgatish jarayoni, balki arab madaniyati, iqtisodiyoti, siyosati hamda islom dini bilan uzviy bog‘liq kengqamrovli bilimlar to‘plamidir. Talaba arab tilini o‘rganish orqali:

- arab xalqlari madaniyati, san’ati, adabiyoti va tarixi haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘lib, o‘z dunyoqarashini kengaytiradi;
- islom dinining asosi sanalmish Qur’on va sunnat hukmlari haqidagi tushunchalarini yanada aniq va teran tushunishga imkon topadi;
- iqtisodiy jihatdan tez rivojlanayotgan arab davlatlaridagi turli tashkilotlar ish beruvchilari bilan aloqa o‘rnatish, ular bilan hamkorlik qilish hamda xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- shaxsiy rivojlanish, o‘sish, takomillashish imkonini qo‘lga kiritib, yangi g‘oya va fikrlar bilan tanishadi.

O‘z o‘rnida, murakkab bir tilni o‘rganish o‘rganuvchida va uni o‘qitish esa o‘qituvchida sabr-toqat va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, professional hayotda qadrlanadigan ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Soipova H. Arab tili o‘qitishni jadallashtirish. – Toshkent, 2010.
2. Radjabova M. Arab tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2022.
3. Shodmonova M. Ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent, 2021.
- السلمي ف.ص. مدخل تعليم اللغة العربية لأغراض خاصة في الجامعات السعودية: ملامح الواقع وآفاق التطوير 4. // مجلة كلية التربية. – السعودية، ٢٠١٨.
5. Almelhes S.A. Gamification for teaching the Arabic language to non-native speakers: a systematic literature review // Frontiers in Education. – Orange, United States: Chapman University, 2024.

